

MUSULMON DINSHUNOSLIGIDA ISROILIYOT QISSALARINING TADQIQ ETILISHI

ИССЛЕДОВАНИЕ СКАЗАНИЙ ИСРАИЛИЯТА В МУСУЛЬМАНСКОЙ РЕЛИГИОВЕДЕНИИ

THE STUDY OF THE NARRATIVES OF ISRAILIYYAT IN MUSLIM RELIGIOUS STUDIES

Dilorom MUMINJONOVA,
INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF UZBEKISTAN,
2nd year master's student of comparative religious studies
diloromxolmirzayeva@mail.ru,
11 A.Kadiri, Tashkent 100011, Uzbekistan

DOI: 10.47980/IIAU/2023/3/6

Annotatsiya: Dinshunoslik gumanitar fanlar qatoridagi insoniyatning madaniy, ma'rifiy tarixini o'z ichiga olgan ilmlar qatoriga kiradi. Dinshunoslik fanining yirik tarmog'i hisoblangan qiyosiy dinshunoslik sohasi nafaqat G'arbda, balki, o'rta asr Sharqida ham alohida o'rganilgan va bu fanning ilk asoschilari aynan Sharq zaminidan yetishib chiqqan. Sharq musulmon jamiyatida, dinlarni qiyosiy o'rganishdagi omillardan biri, rost va yolg'on xabar va rivoyatlarni ajratish hisoblangan. Bu borada ikki xil qarash mavjud bo'lib, birinchi qarashga ko'ra, islom dinini haq din ekanligini isbotlash bo'lsa, keyingi qarashga ko'ra, islom dini, xususan, Qur'on tafsirlari va hadislariga kirib kelgan isroiliyot rivoyatlarini tekshirish, ularning ishonchligini aniqlash uchun yahudiylar va xristianlik manbalari o'rganilgan. Shu sabablarga asoslangan holda, musulmonlar tomonidan yozilgan asarlarda isroiliyot qissalari tadqiq etilgan.

Ushbu maqolada Qur'on tafsirlari va hadislarini kengroq sharhlash maqsadida yahudiylar va nasroniylar manbalari asosidagi isroiliyot qissalarining kirib kelish sabablari o'rganilgan. Isroiliyot qissalarining islom dini manblariga kirib kelishining asosiy sababi, Qur'onda zikr etilgan qissalarni kengroq o'rganish va tahlil qilish hisoblangan. Sahobalar davrida isroiliyot rivoyatlari, Qur'onda keltirilgan qissalarni kengroq tushunish uchun Madinada istiqomat qiluvchi yahudiy va nasroniylardan yoki islom dinini qabul qilgan, dastlab e'tiqod qilgan dinlarning muqaddas manblaridan xabardor bo'lgan musulmonlardan so'rab o'rganishlik natijasida kirib kelgan. Tobeinlar davriga kelib, ishonchsiz xabarlar va qissalardan foydalanish natijasida, keyinchalik barcha isroiliyot roviylari tomonidan rivoyat qilingan qissalardan foydalanilgan tafsirlar ishonchlik darajasini yo'qotgan. Ammo, bunga qaramasdan yahudiylar, xristianlik va islom dinlarning asosi va ildizlari bir bo'lganligi sababli, ushbu dinlarning muqaddas manbalarini qiyosiy tahlil etishda isroiliyot qissalari muhim hisoblanadi.

Musulmon olimlari tomonidan isroiliyot qissalari uch qisimga ajratilgan:

1. Mavquf xabarlar. Ularning sahifligi Muhammad payg'ambar (s.a.v) hadislarini orqali tasdiq etilgan bo'lib, bunga misol sifatida Qur'ondagi Muso payg'ambar bilan solih kishi qissasidagi shaxsning Xizr payg'ambar ekanligi Imom Buxoriy rivoyat qilgan hadisda keltirilgan.

2. Sukut qilinadigan xabarlar. Ularning rost yoki yolg'onligi ma'lum emas. Bu turdagi rivoyatlarni nasihat va ibrat uchun hikoya qilingan. Lekin ularning sahifligiga iymon keltirilmaydi, yolg'onga ham chiqarilmaydi.

3. Inkor etiladigan xabarlar. Bunday xabarlar islom dini aqidasi zid kelganligi sababli bunday rivoyatlar tasdiq etilmaydi. Bunga misol sifatida, Iso payg'ambarning xochga mixlangani haqidagi rivoyat.

Maqolada, shuningdek, Qur'on tafsirlarida keng foydalanilgan, isroiliyot qissalari va ularni rivoyat qilgan roviylar haqida ma'lumot berilgan. Bir necha isroiliyot qissalari tadqiq etilgan.

Аннотация: Религиоведение является одной из гуманитарных наук, включающей культурную, образовательную и интеллектуальную историю человечества. Область сравнительного религиоведения, считающаяся крупной отраслью религиоведения, как самостоятельная наука изучалась не только на Западе, но и в Средние века на Востоке, также первые основоположники этой науки были выходцами с Востока. В восточно-мусульманском обществе одним из факторов сравнительного изучения религий является разделение истинных и ложных преданий и повествований. В этом отношении существуют два различных взгляда: первый заключается в том, чтобы доказывать, что ислам является истинной религией и его правильность, другой взгляд исходит из определения достоверности преданий и повестей исаилията, вошедших в религию ислам, в частности при толковании Корана и хадисов изучались иудейские и христианские религиозные источники. Исходя из этих причин, исаилият также изучался в трудах, написанных мусульманскими богословами.

В данной статье были изучены причины введения повестей и преданий исаилията из источников иудаизма и христианства для более широкого толкования Корана и хадисов, считающихся источниками исламской религии. Главной причиной попадания рассказов исаилията в источники ислама стало более широкое изучение и анализ историй, упомянутых в Коране. Во времена сподвижников повествования исаилията появились в результате расспросов и изучения преданий от иудеев и христиан, живших в Медине, или от мусульман, принявших религию ислам и осведомленных о священных источниках предыдущей своей религии, чтобы понять повествования, упомянутые в Коране. Ко времени табинов, в результате использования недостоверных сообщений и историй, тафсиры, которые использовали истории израильских рассказчиков, утратили свой уровень достоверности. Однако, несмотря на это, вследствие того, что основа и корни иудаизма, христианства и ислама одни и те же, предания исаилията важны при сравнительном

анализе сакральных источников этих религий. Предания исаилията разделены мусульманскими учеными на три части:

1. Приемлемые предания, подлинность которых не вызывает сомнений. Их достоверность подтверждают хадисы Пророка Мухаммада, например, в хадисе, переданном имамом Бухари, личностью в истории пророка Моисея праведником является пророк Хизр.

2. Сомнительные повествования, которые не принимаются, но и не отвергаются. Истинны они или ложны, неизвестно. Дозволено рассказывать такие повествования для совета и наставления. В их подлинность не верят, но они и не ложь.

3. Сфабрикованные повествования, противоречащие Корану. Такие повествования не подтверждаются, потому что такие повествования противоречат вероучению ислама. Примером этого является история распятия Иисуса.

В статье также приводится информация о преданиях исаилията, которые широко используются в толкованиях Корана, и о передатчиках, которые их рассказывали.

Ключевые слова: исаилияты, бану исаиль, приемлемые предания, Абдуллах ибн Салам, Кааб ал-Ахбар, Вахб ибн Мунаббих, Тора, Забур, Евангелие, Коран.

Annotation: Religious studies is one of the subjects of the humanitarian education area that involves the cultural, educational, and intellectual history of mankind. The field of comparative theology, which is considered a major branch of the science of religion, was studied separately not only in the West, but also in the Middle Ages in the East, and the first founders of this science came from the East. One of the factors in the comparative study of religions in Eastern Muslim society is the separation of real and false narratives. There are two different views on this matter. According to the first view, it is to prove that Islam is the true religion, and according to the second view, the sources of Judaism and Christianity have been studied in order to verify the reliability of the Islamic religion, in particular, Israelliyat (narratives) that included in the interpretations of the Qur'an and hadiths. For these reasons, Muslim scholars addressed Israelliyat in their works.

This article examines the reasons for the introduction of the Israiliyyat narrations based on Jewish and Christian sources in order to interpret the Qur'anic interpretations and hadiths more broadly. The comprehensive study and analysis of the narratives recorded in the Qur'an was the main reason behind the inclusion of narratives of Israiliyyat in the Islamic sources. During the period of the Companions, the narratives of Israiliyyat came as a consequence of asking and learning from Jews and Christians living in Madinah or from Muslims who accepted the religion of Islam and were aware of their religion's sacred sources in order to understand the stories mentioned in the Qur'an. By the time of the Tabeins, the tafsirs, which consisted of stories narrated by all Israelite narrators, had lost their reliability as a result of the use of unreliable reports and stories. Even so, since the basis and roots of Judaism, Christianity, and Islam are the same, narratives of

Israiliyyat play an essential role in the comparative analysis of the sacred sources of these religions. Muslim scholars divided Israiliyyat narratives into three distinct groups:

1. Acceptable narratives, the truthfulness of which are unable to be doubted. Their authenticity is confirmed by the hadiths of the Prophet Muhammad (pbuh), for example, the person in the story of the Prophet Moses and the righteous man in the Qur'an is the Prophet Khizr, narrated by Imam Bukhari.

2. The narratives that are neither accepted nor rejected. It is unsure if they are true or false. These types of stories are narrated for advice and instruction.

3. False narratives that contradict the Qur'an. Such narrations are not verified as they contradict the Islamic theology. The narrative of the crucifixion of Jesus is an example of this.

The article also discusses the narratives of Israiliyyat and the narrators who told them, which are frequently used in Qur'anic interpretations. Several Israiliyyat are researched.

Key words: Israiliyyats, Bani Israil, acceptable narratives, Abdullah ibn Salam, Kaab al-Axbar, Vahb ibn Munabbih, Tora, Zabur, Gospel, Qur'an.

KIRISH

“Isroiliyot” so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, Qur‘ondan oldingi nozil qilingan kitoblar Tavrot va Injilda keltirilgan ma‘lumotlarning Qur‘on tafsirlari va hadislarida ishlatilishi hisoblanadi. Shuningdek, ba‘zi manbalarda “Isroiliyot” so‘zi, yahudiylardan rivoyat qilingan ma‘lumotlarni bildirsa ham, umumiyroq ma‘noda, ya‘ni yahudiy va nasroniylardan rivoyat qilingan asarlar hisoblanadi. Chunki, islomning avvalida yahudiylar ham, nasroniylar ham musulmonlar bilan doim birga aralashib yashaganlar, dunyoning turli chekkalaridan guruh-guruh bo‘lib, Madinaga kelib islomni qabul qilganlar. Har ikki din vakillarining ham alohida diniy madaniyatlari mavjud edi. Shuningdek, Tavrot va Injilning ko‘p hukmlari Qur‘on hukmlariga mos kelardi. Masalan: Tavrotdagi qasos hukmi Qur‘ondagi qasos hukmining ayni o‘zi edi. Tavrotdagi qadimgi payg‘ambarlarning tarixi Qur‘ondagi payg‘ambarlar tarixiga o‘xshash hisoblangan. Yahudiylar qo‘lida Tavrotdan tashqari Muso payg‘ambarning sunnatlari, qavmlariga qilgan nasihatlar, Musodan bo‘lmagan, balki boshqa yahudiy olimlarining sharhlari, donishmandlarning maqollari ham mavjud edi, bu asotirlar vaqt o‘tishi bilan muqaddaslashtirilib, Tavrot sahifalari orasiga qo‘shib yuborilgan. Nasroniylarning Iso payg‘ambarga nozil qilingan Injil ham mustaqil muqaddas bir kitob bo‘lib, (nasroniy dinining ham alohida madaniyati mavjud bo‘lsa-da), keyinchalik o‘z Injillarini «yangi ahd» deb atab, o‘zidan oldingi muqaddas Tavrot va Zaburni “qadimiy ahd” nomi bilan Injilga qo‘shib oldilar (Qastaloniy, 2000:88).

Ahli kitobdan kelganligi haqida rivoyat qilingan, ko'plab xabarlar Tavrot, Injil, Zaburda uchramaydi, yozma manbalarga kiritilmagan bo'lsa ham boshqacha tarzda yetkaziladi (*Araz Ö., 2019:32*). Bunday vaziyatning ikkita sababi bor: Ahli kitoblarda yozma diniy adabiyotlardan tashqari og'zaki diniy adabiyotlar ham mavjud edi. Bunga misol sifatida yahudiylarning asosiy diniy manbasi sifatida Tanax bilan birgalikda Talmudni ham olinishi hisoblanadi. Tanax o'z ichiga Tavrot, Neviim, Xetuvim kitoblarini birlashtirgan bo'lsa, Talmud yahudiylarning og'zaki qonunlari to'plami hisoblangan. "Talmud" yahudiylar uchun "Tavrot" kabi ahamiyatga ega bo'lib, uning vahiy va ilhom mahsuli ekaniga ishonilib, uni inkor qilgan kishi yahudiy, deb e'tirof etilmaydi. Qadimdan "Talmud"ning hajmiga alohida e'tibor berishgan. Shuning uchun ham, mavjud "Talmudlar"ning barchasi 2947 varaq va 5894 betdan iborat. "Talmud" "Mishna" (ibr. – "o'rganish", "ta'limot") va "Gemara" (ibr. – "xotima") kabi ikki bo'limga bo'linadi. Ravvin Yahuda ha-Nasi (135–220) tomonidan jamlangan "Mishna"da Xudo tomonidan Sino tog'ida Musoga vahiy qilingan yahudiylarning diniy, axloqiy asoslari bayon etilgan, deb e'tiqod qilinadi. "Gemara" esa, "Mishna"ning bayoni va sharhidir. Umuman olganda, ovqatlanish, kiyinish, ozodalik, kun tartibi, ibodatlar, marosimlar va bayramlarga taalluqli masalalarni o'z ichiga olgan "Talmud"da yahudiylar marosimlari tizimi ishlab chiqilgan, deyish mumkin. Shuningdek, unda yahudiylar butun umri davomida qat'iy amal qilishi va bajarishi lozim bo'lgan 248 ta buyruq va 365 ta taqiq ham mavjud. Tug'ilgan o'g'il farzand sakkiz kunligida xatna qilinishi, faqat maxsus qassob – shoyixet tomonidan diniy qoidalarga muvofiq so'yilgan go'shtnigina iste'mol qilish, erkaklarning bir rangdagi (siding'a) matodan uzun qilib tikilgan, cho'ntaklari beldan pastda joylashgan kiyim kiyishi, boshni hatto uyquda ham yopib yotishi zarurligi haqidagi talablar shular jumlasidandir. Ibodat paytida "Talmud"da keltirilgan 248 ta buyruq va 365 ta taqiqqa amal qilishlarini o'z zimmlariga olganlarning ifodasi sifatida qirg'oqlarida 613 ta tugun tugilgan maxsus ibodat choyshabi – "tales"ni yelkalariga tashlab olishlari ham, ushbu talablarning yahudiylar hayotida nechog'lik ulkan ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi (*Васильев А., 1999:82*). Bobilliklar va forslar tomonidan asirlikka olingan yahudiylar tomonidan keyingi avlodga Talmud qoidalarini yetkazib berish uchun O'rta yer dengizi bo'ylarida talmudani o'rgatuvchi maktablar tashkil qilina boshlaydi. 190-200-yillar boshlarida Talmud yozma holatga keltiriladi.

Ikkinchi sababi esa, ibroniy tilidagi matnlarni arab tiliga tarjima qilishda til bilan bog'liq muammo bor edi. Ya'ni ibroniy tilining yozma va og'zaki uslubdagi

so'zlarning qo'llanilishida bir qancha leksik muammolar uchrab turgan. Abu Hurayraning rivoyatiga ko'ra, Muhammad payg'ambar (s.a.v) davrida yahudiylar Tavrotni ibroniycha o'qib, musulmonlar tushunishi uchun arab tilida tafsir qilganlar. Muhammad payg'ambar (s.a.v) vaziyatdan xabar topgach: "Ahli kitobni tasdiqlamanglar ham, inkor ham qilmanglar, biz Allohga va u nozil qilgan narsaga iymon keltirdik" degan hadisni keltirdilar. Buning sababi esa, yahudiylar tomonidan musulmonlarga yetkazilgan narsa tarjima orqali bo'lsa, noto'g'ri va to'liq bo'lmagan holda yetkazishlari mumkin edi.

Qur'onda "Banu Isroil" ya'ni "Isroil bolalari" nomi bilan yahudiylar haqida 53 marta ma'lumot keltirib o'tilgan (*Muhammad Fuad., 1987:33*) bo'lib, Ya'qub payg'ambar va uning 12 o'g'liga mansub bo'lgan 12 qabilada bo'lib o'tgan voqealar tavsirlangan (*Goldenberg R., 2007:3*). Bir qancha islom ulamolari tomonidan "al-hadis al-isroiliyot" atamasi o'rinda axbar banu isroiliyot, rivoyat al-yahud, axbar nasroniyyah, rivoyat al-ahli kitab atamalari qo'llanilib kelgan (*Mainiyo A.S., Shuni M. D., 2016:10*). Ibroniylar tilida Ya'qub payg'ambari "Isroil" deb atalishligi quyidagicha izohlanadi: "Ya'qub ruhiy jihatdan o'sish davomida Xudo bilan kurashdi. Ushbu kurashda jarohatlangan Ya'qub keyinchalik, Isroil ya'ni "Xudo bilan kurashuvchi" maqomini oladi. Ushbu kurash yahudiylarni tanitgan ruhiy belgiga aylandi. Tavrotda ham Isroil bolalari yoki banei Yisra'il nomlari keltiriladi. Shunday qilib, isroilliklarning, keyin esa yahudiy xalqining ruhiy vazifasi Isroilga o'xshab, Xudo bilan kurashish va oxir-oqibat o'z xohishiga ko'ra axloqiy vazifalarni bajarish kerak deb hisoblaydilar" (*Mainiyo A.S., Shuni M. D., 2016:14*).

Malayziya islom ilmlari universiteti (Islamic Science University of Malaysia, USIM) professori Van Mohd Fazrul Azdi bin Van Razaliyning fikriga ko'ra, ismning Ya'qubdan Isroilga o'zgarishining sababi, Ibtido kitobida aytib o'tilganidek, uning Xudo bilan kurashidagi g'alabasi deb hisoblaydi: "U dedi: "Sening isming endi Yoqub emas, balki Isroil deb ataladi, chunki sen shahzoda sifatida Xudo va odamlar bilan kuchga egasan va g'alaba qozonding" (*Bible K., 2016:32*). Shuningdek, Isroiliyot rivoyatlari yahudiylardan tashqari nasroniylardan rivoyat qilingan qissalar ham kiradi. Lekin islom manbalarida ularning barchasi ahli kitobdan keltirilgan rivoyatlar deya keltiriladi. Bu manbalar orasida yahudiylar (Isroiliyat) va nasroniylar (Nasroniyat) xabarlar hamda Tavrot, Zabur va Injildan olingan bir qancha iqtiboslar mavjud. Bu esa, payg'ambarlar haqidagi rivoyatlarda mushtaraklik mavjudligini ko'rsatadi (*Muhammad H., 1990:14*).

USLUBLAR

Tadqiqot jarayonida Isroiliyot rivoyatlarining ibrohimiyl dinlarning muqaddas manbalarini qiyosiy tadqiq etishdagi ahamiyati hamda sharq va g'arb tadqiqotchilari tomonidan o'rganilishini tadqiq etishda qiyosiy-tarixiy, tipologik, germeneytik hamda deduksion tahlil etish usullaridan foydalanildi.

NATIJA

Manbalarda isroiliyot rivoyatlari asosan to'rt kishidan rivoyat etilganligi haqida aytib o'tiladi. Ularning biri Abdulloh ibn Salom, ikkinchisi Ka'b al-Axbor, uchinchisi Vahb ibn Munabbih, to'rtinchi Abdulmalik ibn Abdulaziz ibn Jurayjdir.

Abu Yusuf Abdulloh ibn Salom ibn Al-Horis Al-Isroiliy Al-Ansoriy bo'lib, nasabi Yusuf ibn Ya'qub (a.s.) ning avlodlaridan hisoblangan. Abdulloh ibn Salom Muhammad Payg'ambar (s.a.v) Madinaga hijrat qilib kelganlaridan so'ng Islomga kirgan. Abdulloh ibn Salom musulmon bo'lishidan oldin ham Madina yahudiylari orasida Tavrot bo'yicha eng bilimli kishilardan hisoblangan. Muoz ibn Jabaldan kelgan rivoyatda, Abdulloh ibn Salom Tavrot va Qur'onni yaxshi biluvchi va jannat bashorat qilingan 10 ta sahobadan biri ekanligi haqida aytib o'tiladi.

Abu Is'hoq Ka'b ibn Muti' Al-Humayriy bo'lib, Ka'bul Axbor nomi bilan manbalarda tilga olingan. Uning asli Yaman yahudiylaridan, johiliyat davrini ko'rgan, Abu Bakr Siddiq yoki Umar ibn Xattob xalifalik davrida musulmon bo'lgan. Ba'zilarining aytishicha, Ka'b Muhammad Payg'ambar (s.a.v) ning hayotlik paytlarida islomni qabul qilgan, ammo Madinaga hijrati kechikkan. Ibn Hajar "Al-Fath" nomli kitobida: "Ka'bning Islomga kirishi Umar ibn Xattobning xalifalik davrlarida bo'lgani haqidagi xabar to'g'riroqdir. Musulmon bo'lganidan keyin Madinaga hijrat qilgan, Rum g'azotida ishtirok etgan. Usmon ibn Affonning xalifalik davrlarida Shomga qaytib kelgan va Himsda yashagan. Hijriy sananing o'ttiz ikkinchi yilida Himsda vafot etgan" deyilgan. Payg'ambar Muhammad (s.a.v)dan mursal hadislarni rivoyat qilgan, Umar ibn Xattob, Suhayb va Oisha bintu Abu Bakrlardan ham rivoyatlar qilgan. Ka'bdan esa Muoviya ibn Abu Sufyon, Abu Hurayra, Ibn Abbos, Ato ibn Abiy Raboh va boshqalar rivoyat qilgan. Ka'b Tavrot va Qur'on ilmlarini jamlaganligi uchun uni "Ka'bul-xibr" va "Ka'bul Axbor" (Donishmandlarning oliysi) deb nom berishgan edi.

Abu Abdulloh Vahb ibn Munabbah ibn Siy ibn Ziy Kanoz Al-Yamoniyy As-San'oiy bo'lib, qissalar sohibi va tobeinlardan edi. Abdulloh ibn Ahmad ibn Hanbalning

aytishiga qaraganda, Vahb ibn Munabbah fors millatiga mansub edi. Uning otasi Munabbah Xurosonning Hirot shahridan bo'lib, uni Kisro mamlakatdan Yamanga chiqarib yuborgan edi. Vahb ibn Munabbah chuqur ilmiy, qadimiy kitoblarni ko'p o'qigan, olamning yaratilishi haqidagi o'tmish xabarlar va tarixiy qissalarni ko'p biladigan olim edi. Undan "Fil Mag'oziy" nomli asar ham qolgan. Ibn Xallikonning guvohlik berishicha, Vahb ibn Munabbahning yana bir kitobi bo'lib, unda Himyarda podshohlik qilgan kishilarning qissalari, tarixlari, qabrlarining o'rni va she'rlari yozilgan.

Abu Xolid yoki Abul Valid Abdulmalik ibn Abdulaziz ibn Jurayj Al-Ummaviy bo'lib, asli rumlik nasroniy edi. Islomga kirgandan so'ng Makka ulamolaridan va muhaddislaridan biri bo'ldi. Ibn Jurayj Hijozda kitob yozgan birinchi olimdir. U tobeinlar davrida isroiliyotlarni eng ko'p rivoyat qilgan shaxs hisoblanadi. Ibn Jarir At-Tabariyning tafsirida keltirilgan, nasroniylar haqidagi oyatlarning barchasida Abdulmalik Ibn Jurayj tomonidan rivoyat qilinganligi keltirilgan.

Isroiliyot rivoyatlari to'g'risidagi qo'shimcha dalillar Ibn al-Murag'g'aning hijriy 430/1040-yilda yozilgan Kitab Fada'il Bayt al-Maqdis va-al Xalil va-Fada'il al-Sham (The Praises of Jerusalem, Syria, and Hebron) asarida keltirilgan. Ushbu asarda Sulaymon payg'ambar haqidagi rivoyatlar isnodi bilan keltirilgan bo'lib, isroiliyotga oid rivoyatlar Vahb ibn Munabbihdan rivoyat qilinganligi aytib o'tilgan. Ibn Murag'g'adan keyingi davrda G'azzoliyning asarlarida Isroiliyot rivoyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. G'azzoliyning «Ihyo ulum ad-din» asarida keltirilgan ba'zi xabarlarni isroiliyot rivoyat qilingan yoki isroiliyot roviylari tomonidan rivoyat qilingan deya asoslab o'tishga harakat qilgan. Bu esa isroiliyot rivoyatlari faqatgina Vahb ibn Munabbih nomi bilan bog'liq emasligini ko'rsatadi. Lekin, G'azzoliy isroiliyot rivoyatlarini ketma-ketlik asosida bir tizimga solmagan, uning asarida keltirilgan ma'lumotlar faqatgina ba'zi payg'ambarlar haqida keltirilgan qissalarni isroiliyotlardan olganligini ta'kidlab o'tishga harakat qilgan. Andalusiyalik olim Abu Bakr Muhammad Turtushi (1059-1126) o'zining «Siroj al-Muluk» asrida to'rt joyda isroiliyot rivoyatlari haqida keltirib o'tadi. Turtushi Iso payg'ambar va boshqa payg'ambarlar haqida isroiliyotlar to'g'risida ma'lumot bergan. Turtushi o'z asarida keltirgan ma'lumotlarini Vahb ibn Munabbihning "al-Isroiliyot" asari bilan bog'lashga harakat qilgan. Abu Bakr Arabiy (1148) tomonidan yozilgan tafsir asarida ham isroiliyot rivoyatlari haqida ma'lumot berilgan, lekin, isroiliyot rivoyatlari haqida Abu Bakr Arabiy isroiliyot rivoyatlarini Qur'on qissalarini sharhlashda

foydalanishni ijobiy baholamaganlar, uning fikriga ko'ra, isroiliyot rivoyatlarining ishonchli yoki ishonchli emasligi to'g'risida ulamolar turlicha fikr bildiradilar. Arabiy tafsirida isroiliyot rivoyatlaridan Shuayb payg'ambarning qizini Muso payg'ambar bilan turmush qurishi to'g'risidagi qissada foydalanganligi haqida ma'lumot bergan. Ibn Arabiyning fikriga ko'ra, Molik ibn Anas ham o'z asarlarida isroiliyot rivoyatlarini keltirib o'tganligi haqida ma'lumot bergan. Abbosiylar xalifaligi davrida ijod qilgan olimlardan biri, Ibn Javzi (1116 - 1200) o'zining «Kitab al-qussas val-muddakirin» asarida sahobalar va tobeinlar isroiliyot qissalarini rivoyat qilishni yoqtirmaganliklari haqida keltirib o'tgan va bunga misol sifatida Umar ibn Xattob isroiliyotdan misol keltirib payg'ambar Muhammad (s.a.v) dan izoh so'rganida, ulardan uzoq turishi kerakligi haqida aytib o'tgan. Shundan ko'rinib turibdiki, isroiliyot qissalaridan foydalanishga har doim ham ruxsat berilmaganligi keltirilgan bo'lsa, lekin bu Vahb ibn Munabbihga o'xshagan islomgacha bo'lgan muqaddas kitoblarni o'rgangan sahobalardan kelgan rivoyatlarda isroiliyotlar ham keng foydalanilganligini ko'rishimiz mumkin. Lekin, musulmon olimlari asarlarida isroiliyot rivoyatlari sifatida to'liq Bibliyada keltirilgan hukimlar olinmagan balki, payg'ambarlar qissalari va Qur'onda keltirilgan voqealarni dalillar bilan ifodalashga harakat qilganlar. Ibn Javziy o'zining asarida Dovud payg'ambar va Uriah ismli jangchi voqeasini sahiih bo'lmagan isroiliyot rivoyati sifatida keltiradi (*Ibn Javziy, 1986:10*). Eronlik geograf va aqid ilmi vakili hisoblangan Zakariyo Qazvinii ham o'zining «Aja'ib al-Maxluqat va G'aro'ib al-Mavjudat» asarida ko'plab isroiliyot rivoyatlaridan foydalangan. «Aja'ib al-Maxluqat va G'aro'ib al-Mavjudat» asari 2 qismdan tashkil topgan bo'lib, ushbu asarning birinchi qismida samoviiy jismlar: quyosh, oy, yulduzlar bilan birgalikda, Jannat, farishtalarning yaratilishiga oid aqidaviiy qarashlar yoritilgan bo'lsa, ikkinchi qismida esa, geografiyaga oid ma'lumotlar ya'ni, 7 qit'aga bo'linish, yer jinslari, daryolar, dengizlar va hayvonot olami haqida ma'lumot berilgan (*Netton, Ian R., 2013:686*). Qazviniiy ushbu asarda keltirilgan qissa va rivoyatlarni isroiliyotlardan olinganligi haqida aytib o'tilgan. Misol uchun Azozil ya'ni shayton haqidagi xabarga Qazviniiy «va minha ma zukirol fil-israiliyaat» ya'ni isroiliyot rivoyatlaridan foydalanilgani haqida ma'lumot berib o'tgan (*Qavziniy, 1966:213*). Isroiliyot rivoyatlari haqida o'z asarida keltirib o'tgan mualliflardan biri Ibn Taymiyya hisoblanadi. Lekin uning asarlarida, isroiliyot qissalari tanqid etilgan bo'lib, isroiliyotlardan kelgan barcha xabarlar ishonchsizligi aytib o'tilgan (*Haysam M., 1970:49*). Ibn Taymiyya o'z

fatvolarida faqatgina isroiliyot rivoyatlari hadis orqali ishonchli bo'lsagini qabul qilgan. Shuningdek, tafsir ulamolaridan farqli ravishda isroiliyotga oid xabarlarni isroiliyot xabarlaridan emas, balki, hadis orqali sahiih qilingan isroiliyot xabarlaridan deya izoh berishni afzal ko'rgan

Tarixchi va tafsirshunos olim Ibn Kasir o'zining asarlarida isroiliyot qissalaridan tizimli foydalangan. Ibn Kasir tomonidan yozilgan tafsir va umumiiy tarixiiy asarlarda Bibliyadagi hikoyalar va kosmologiya yoritilganligi sababli, ko'plab olimlar tomonidan muhokamaga sabab bo'lgan. Ibn Kasir isroiliyot rivoyatlaridan foydalanishda an'anaviiy usullardan voz kechadi. Ibn Kasir o'zining «Al-bidaya val-nihaya» asarida isroiliyotlar haqida quyidagi fikrlarni keltiradi: «Biz isroiliyot rivoyatlarini faqatgina Qur'onga qarama-qarshi fikrlar keltirilmagan qismidan foydalanishimiz kerak». Bundan ko'rinib turibdiki, Ibn Kasir boshqa olimlardan farqli ravishda isroiliyotlardan foydalanishni rad etmagan, balki isroiliyotda keltirilgan xabar, Qur'onda bayon etilgan voqeani rad etmasa undan foydalanish mumkinligini yoqlagan. Shuningdek, Ibn Kasir yuqoridagi asarda Vahb ibn Munabbih, Ka'b al-Axbordan boshqa sahobalar tomonidan ham xabarlar yetib kelganligi haqida ma'lumot bergan. Bunga misol sifatida, 636-yilda musulmonlar va Vizantiya o'rtasida bo'lib o'tgan Yarmuk g'azotida Abdulloh ibn Amr ibn Os ikki tuyaga ortilgan kitoblarni musulmonlar olganligi haqida xabar bergan. «Al-bidaya val-nihaya» asarida ushbu kitoblardagi ma'lumotlar «axbar bani israil» tarzida Abdulloh ibn Amr ibn Osdan rivoyat qilingan isroiliyot rivoyatlari tarzida keltiriladi. Shuningdek, Ibn Kasir dastlabki isroiliyotga oid xabarlar haqidagi asarlar olimlar tomonidan ularning rad etilishi haqidagi tahliliiy asarlar sifatida yozila boshlaganligi haqida aytib o'tgan. Ibn Kasir tafsir olimlari orasida birinchilardan bo'lib, isroiliyot rivoyatlarini tizimli holatda o'z asarlarida qo'llagan olim hisoblangan. Keyinchalik, Suyutiyy o'zining «Itqon» asarida isroiliyotlardan foydalangan bo'lsa-da, uning asarida Ibn Kasir keltirib o'tgani kabi, Buxorii sahiihida keltirilgan xabarga tayanilmagan.

1310-yilda Nosiriddin Rabg'uziiy tomonidan yozilgan, «Qissasi Rabg'uziiy» asari Odani (a.s)dan boshlab Muhammad payg'ambar (s.a.v)gacha bo'lgan payg'ambarlar va Qur'ondagi qissalar haqida ma'lumot beruvchi asar hisoblanadi. Lekin ko'plab islom olimlari tomonidan, Rabg'uziiyning ushbu asari isroiliyot rivoyatlariga asoslanishi haqida fikrlar bildirilgan. Bunga esa, Ka'b ul-Axbor va Vahb ibn Munabbih kabi isroiliyot roviylari hisoblangan sahobalardan ma'lumotlar keltirganligi hisoblanadi.

Imom Zahabiiy o'zining «Al-Isroiliyot fit-tafsir val hadis» nomli kitobida: «الإِسْرَائِيلِيَّات» lafzi «إِسْرَائِيلِيَّة»

so'zining ko'plik ko'rinishidir. U isroiliy masdaridan rivoyat qilingan hodisa yoki qissaga aytiladi va uning nisbati Banu Isroilga beriladi. U Ya'qub ibn Is'hoq ibn Ibrohim alayhissalomdir (*Muhammad H.Z., 1990:13*). Islom dini manbalariga ko'ra, yahudiylar (Banu Isroil) xalqi dastlab tanlangan xalq bo'lgan va ko'plab payg'ambarlar ushbu qavm vakillari orasidan tanlab olingan. Ammo payg'ambarlar vafotidan so'ng, ularga yuborilgan shariatni o'zgartirib yubordilar. Shuning uchun Qur'onda Ya'qub payg'ambarning yahudiy emasligi haqida zikr etilgan. Bu esa yahudiylarning Ya'qub payg'ambarga e'tiqod jihatdan emas balki, nasl jihatidan bog'langanini ko'rsatadi.

Isroiliyot rivoyatlarini o'rgangan G'arb olimlaridan biri Reinhart Kozellek isroiliyot rivoyatlarini yahudiy va nasroniylardagi tarixiy voqealar islom dini manbalarini kengroq tushuncha bilan ifodalashga yordam beradi degan fikrlarni bildirgan.

Italiyalik sharqshunoslardan biri Roberto Tottoli: "isroiliyot" tushunchasining kelib chiqishi va qo'llanilishi haqida yozgan maqolasida isroiliyot masalalarining kelib chiqishi haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: "Isroiliyot atamasi islom adabiyotida Qur'on qissalari va payg'ambar qissalariga oid rivoyatlar hisoblanadi. Hozirgi islom tafsirlarida esa isroiliyot rivoyatlarini kosmogoniya (koinotning yaratilishi), solih kishilar va yahudiylardan bo'lgan payg'ambarlar haqida rivoyat qiluvchi qissalar bo'lganligi sababli musulmon olimlarining askari qismi ularni qabul qilishda uning to'g'riligini tekshirishga ahamiyat berish kerakligini ta'kidlaydilar. Ushbu atama zamonaviy G'arb tadqiqotlarida o'rta asrlardagi tafsir va tarixga oid to'plangan ma'lumotlar Bibliya mavzulari bo'yicha materiallarga murojaat qilish uchun ham qo'llaniladi" (*Tottoli R., Kaya M., 2010:201*).

Britaniyalik sharqshunos Norman Kolder "Isroiliyot" atamasi qo'llanilishini tanqidiy qarash bilan ko'rib chiqadi. Kolder ta'kidlashicha (*Calder N., 2005:101*): «Islom adabiyotida bu atama ushbu materiallarning asl kelib chiqishi bilan bog'liq holda hech qanday ma'noga ega emas. Ammo buning o'rni, bu materiallarga diniy qarama-qarshilik ramzi sifatida, ko'pincha tasodifiy va polemik tarzda qo'llaniladi. Kolder isroiliyot atamasi Qur'on tafsirchilari tomonidan taqdim etilgan va e'tiroz bildirgan holatlarni tasvirlash uchun ibn Kasir bilan birga tafsir terminologiyasiga kirgan.

Vengriyalik sharqshunos Ignats Goltsiarning fikriga ko'ra, isroiliyot atamasi ilk bor Abul Hasan Ali ibn Husayn Mas'udiy (896-956) ning مَرْجُوحُ الْأَنْهَبِ وَمَعَادِنُ الْجَوْهَرِ (Qimmatbaxo toshlar va ma'danlar) asrida keltirilganligini ta'kidlab o'tgan. Ushbu asarda dunyoning yaratilishidan boshlanib, Abbosiylar

xalifaligi davrida Bag'dodning tarixigacha bo'lgan davrlarni qamrab olgan voqealar haqida ma'lumot berilgan. Mas'udiy ushbu asarda isroiliyot rivoyatlarini qabul qilinishi va qabul qilinmasligi to'g'risidagi holatlar haqida batafsil yoritib bergan. Aslida ushbu asar to'liqligicha isroiliyot xabarlar haqida yozilmagan bo'lib, ma'lum qismida isroiliyot rivoyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Chunki, ko'plab rivoyatlar va qissalarning asoslari isroiliyotlardan bo'lib, ularning qaysilarini ishonchli yoki ishonchli emasligi hadislarida o'z ifodasini topgan (*Tottoli R., 1999:210*).

MUHOKAMA

Tadqiqotchilar tomonidan isroiliyot rivoyatlarining islom manbalariga kirib kelishida shaxsiy, ijtimoiy va diniy sabablar borligi haqida ma'lumot berilgan (*Karaalp C., 2020:25*). Isroiliyot rivoyatlarining islom manbalariga kirib kelishidagi shaxsiy sabablar quyidagilar hisoblanadi: Arablar badaviy bo'lganligi sababli ma'lumotlarni yahudiy olimlaridan aniqlashtirishga harakat qilgan. Qur'ondagi oldingi payg'ambarlar va qavmlar qissalari misol keltirish maqsad qilinganligi sababli, Qur'on qissalarida zamon, makon, shaxs, xronologiya va voqea-hodisalar yaxlitligi kabi xarakterli tarixiy unsurlar yo'q edi (*Demir Ş., 2003:33*). Qissalardagi bu bo'shliqlarni to'ldirish uchun ahli kitoblarga murojaat qilish isroiliyot qissalarini islom madaniyatiga kirib borishi va tarqalishida birlamchi omil bo'ldi. Shuningdek, insonlarning hikoya va ertaklarni tuzilma sifatida tinglashga moyilligi, bo'rtirilgan narsalarni yaxshi ko'rishi va hikoyalarning jozibadorligi uning islom madaniyatiga kirib kelishidagi yana bir sabablaridan biri edi (*M. Lütfi Sebbag., 1999:141*).

Bundan tashqari oldingi payg'ambarlar Hud, Solih va Ibrohimni arablar o'zlarining ajdodlari deb hisoblaganligi sababli, ular haqidagi ma'lumotlar ahli kitoblar orqali kelganligiga qaramasdan ularni bilishni o'zlarining qadryati deb bilar edilar. Shu sababli ular haqidagi ma'lumotlarni ular isroiliyot rivoyatlari sifatida bilmasliklari isroiliyotlarning kirib kelishida ijtimoiy sabablardan hisoblanadi (*Muhammed G'D., 1990:42*).

Yahudiy va nasroniylardan ba'zilar islom dinini qabul qilganlaridan keyin musulmon olimlari o'z musulmon birodarlaridan eshitgan aralash rivoyatlarni (isroiliyotlarni) ham qabul qila boshladilar. Bu narsa albatta Qur'on tafsirida ham o'z ta'sirini namoyon qilmasdan iloji yo'q edi. Negaki, avvalgi muqaddas kitoblarda yozilgan ahkomlar, qissalar Qur'onda ham mavjud bo'lib, faqat qisqacha bayon etilgan, ba'zi tarixiy voqealar aytilib, voqea sodir bo'lgan shaharlar nomi zikr etilmagan edi. Bularning mufasssal bayonini esa islom dinini qabul qilgan yahudiy yoki nasroniylar ma'lumot

sifatida soʻzlab berar edilar. Agar Qurʼon va Tavrotda yoki Qurʼon va Injilda kelgan bir xil mavzuni olib, ularni qiyoslab koʻrilsa, ularda jiddiy ixtiloflar borligini koʻramiz. Masalan: Odam paygʻambar qissasini olaylik; Bu qissa Tavrotda ham kelgan. Qurʼonda esa juda koʻp joyda kelgan boʻlib, eng uzun va keng bayon etilgani “Baqara” va “Aʼrof” suralaridadir. Lekin bu suralarda ham jannatning qayerdaligi, Odam va Havvoga yeyish man etilgan daraxtning nomi, qaysi hayvon sabab boʻlib Shayton jannatga kirib olib, Odam va Havvoni xato qilishga imkon topgani, Odam va Havvo jannatdan chiqarilgandan soʻng qaysi yerga tushganlari toʻgʻrisida batafsil maʼlumot yoʻq. Tavrotga nazar solgan odam esa, Odam va Havvo yaratilgan jannat Adan (Adan –Somali davlati, Qizil dengiz va Ammon dengizi oraligʻidagi yer) ning sharqida joylashganligini, Alloh ularga yeyishni man etgan daraxt jannatning oʻrtasida boʻlib, uni «hayot daraxti yoki yaxshilik va yomonlikni bildiruvchi daraxt» deb nomlanishini, Shaytonning jannatga kirishiga ilon yordam berganligini, shuning uchun Alloh uni qorni bilan yuradigan va tuproq yalaydigan qilib jazolaganini, Havvoni va uning zurriyotini esa qornida bola koʻtarib, mashaqqat bilan tugʻish jazosiga mahkum etilganligini va boshqa shunga oʻxshash hodisalarni batafsil bilib oladi (*M. Lutfi Sebbaʼgʻ., 1999:143*). Shuningdek, Qurʼoni Karimda Iso paygʻambarning qissasi, uning moʻjizalari haqida «Maryam», «Oli Imron» va «Moida» suralarida moʻjazzina xabarlar mavjud boʻlsa ham, bu suralarda Iso paygʻambarning nasabi, qanday tugʻilgani, qayerda tugʻilgani, Maryamga tuhmat qilgan odamning ismi, osmondan tushgan dasturxondagi taomning navi, Iso paygʻambar kasalni davolagan va oʻlikni tiriltirgan vaqtdagi hodisalar haqida batafsil aytilmagan. Ammo bu maʼlumotlar Matto, Mark va Luka Injillarida mufasssal bayon etilgan. Lekin isroiliyot rivoyatlari ilk islom davridan maʼlum boʻlishiga qaramasdan olimlar tomonidan oʻrganilmagan (*Naʼnaʼah R., 1970:74*). Maʼlumki, Qurʼoni Karim tafsiriga isroiliyotlarning kirib kelishi sahobalar davridan boshlangan edi.

Buning birinchi sababi yuqorida aytib oʻtilganidek, Qurʼonning juda koʻp oyatlaridagi qissalarning Tavrot va Injilda keltirilgan qissalarga muvofaqati boʻlsa, ikkinchi sababi Qurʼonning moʻjazligi, Tavrot va Injilning ayni xabarga mufasssalligi edi. Uchinchi sababi esa sahobalar zamonida tafsir uchun asosiy masdarlardan biri ahli kitoblar edi. Mufasssir sahoba Qurʼoni karimdagi biror qissaga kelganda, bu qissani batafsilroq tushuntirishni istar edi va islomni yangi qabul qilib, musulmonlar bilan birga yashayotgan yahudiy yoki nasroniydan eshitishga majbur boʻlard. Chunki, sahobaning Qurʼon oyatidagi qissalar haqidagi savoliga yahudiy yoki nasroniydan boshqa odam javob bera olmas edi. Sahobalar ham ulardan har qanday narsani soʻrayvermas edilar,

balki Qurʼondagi baʼzi qissalarning moʻjaz joylarini tavsiflash uchun soʻrardilar, ammo Muhammad Paygʻambar (s.a.v.)ning ushbu muborak soʻzlari: “Ahli kitoblarni tasdiq ham qilmanglar, yolgʻonga ham nisbat bermanglar! Biz: “Allohgʻa va u Zot tomonidan bizga yuborilgan kitoblarning hammasiga imon keltirdik»,– denglar!” soʻziga amal qilgan holda ularni hech qachon Muhammad Paygʻambar (s.a.v.)dan vorid boʻlgan hadislariga teng koʻrmagan va ahli kitoblardan (Asʻhobi Kahf itining rangi, Muso paygʻambar qavmlari oʻlikni molning qaysi aʼzosi bilan urganligi, Nuh paygʻambar kemalarining hajmi, qaysi daraxt yogʻochidan yasalgani, Xizr paygʻambar oʻldirgan bolaning ismi va hokazo singari) behuda hisoblangan savollarni ham soʻramaganlar (*Ibn Hajar, 2005:120*). Dehlaviy aytadi: “Sahobalar bunday behuda savollar berishni “vaqtini zoʻye qilish” deb bilganlar va oʻzlariga or sanaganlar” (*Dehlaviy, 1950:35*). Sahobalar ahli kitoblardan eshitgan shariatga yoki aqidaga xilof boʻlgan javoblarni tasdiq etmaganlar, balki ahli kitoblarning shunday javoblarini xato ekanligini koʻrsatib, ularga toʻgʻri javobni tushuntirganlar. Masalan: Abu Hurayra (r.a.) rivoyat qiladilarki, “Muhammad paygʻambar (s.a.v.) juma kuni toʻgʻrisida gapirdilar: “Juma kunida bir soat bor, shu soatda qaysi moʻmin tik turgan, namoz oʻqigan va qoʻlini ochib Allohdan maqsadini soʻragan holda boʻlsa, Alloh moʻminning duosini ijobat qiladi”,– dedilar va qoʻllari bilan bu soatning juda qisqaligiga ishora qildilar”. Ulamolar bu soatning aniq vaqtda ixtilof qilganlar, shu soat hozir ham mavjudmi yoki Alloh uni bekor qilganmi? Agar mavjud boʻlsa, bir yilda faqat bir jumadami yoki har bir jumada mavjudmi? Ushbu savolni hal qilish uchun Abu Hurayra (r.a.) yahudiy olimi boʻlgan Kaʼb ul-Axbordan soʻradi. Kaʼb ul-Axbor, bu soat bir yilda bir jumada ekanligini aytdi. Abu Hurayra (r.a.) esa uning javobini tasdiq qilmasdan, mazkur soat har bir jumada mavjud ekanligini aytdi. Kaʼb ul-Axbor Tavrotni varaqlab, Abu Hurayra (r.a.)ning gapi rost ekanligini tasdiqladi (*Qastaloni, 2000:190*). Abu Hurayra (r.a.) jumadagi mazkur soatning vaqtini boshqa bir yahudiy olimi Abdulloh ibn Salomdan soʻradi. Abdulloh ibn Salom: “Jumadagi bu soat shu kunning eng oxirgi soatidir”,– deb javob berdi. Abu Hurayra (r.a.) unga raddiya berib: “Mazkur soat qanday qilib eng oxirgi soat boʻladi, eng oxirgi soatda(kun botayotgan vaqtda) namoz oʻqish mumkin emas-ku! Vaholanki, Paygʻambarimiz (s.a.v.): “Namozda turgan holda roʻbaroʻ kelsa...”,– deganlar”,– dedi. Abdulloh ibn Salom ham boʻsh kelmay: “Muhammad paygʻambar (s.a.v.): “Kimki namozga muntazir boʻlib oʻtirs, namoz oʻqiyotgan hisobida boʻladi»,– demaganmidilar?” – deb javob berdi. Sahobalar ahli kitoblardan savol soʻrash va ularning javoblarini tasdiqlashda Paygʻambarimiz (s.a.v.) belgilab

bergan darajadagina foydalangan. Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ning: “Mendan bir oyat bo‘lsa ham boshqalarga yetkazinglar! Banu Isroildan eshitganlaringizni ham gapiraveringlar, hech zarari yo‘q. Kimki qasddan menga yolg‘onning nisbatini bersa, u o‘ziga do‘xax olovidan o‘tiradigan joy tayyorlabdi”, – degan hadislar bilan “Ahli kitoblarni tasdiq ham, takzib ham qilmanglar, biz Allohga va u bizga nozil qilgan muqaddas kitoblarga imon keltirdik, denglar!” – degan hadislar orasini jam qilgan holda, ularning gaplarini yolg‘on emasligini bilib turib, kerakli, foydali gaplarni *aytganlar* (*Ibn Hajar, 2005:629*). Chunki Muhammad Payg‘ambar (s.a.v.) hech kimga yolg‘onni muboh qilmaganlar. Jobir ibn Abdulloh (r.a.) shunday rivoyat qiladiki, bir kuni Umar ibn Xattob ahli kitoblardan o‘z qo‘llariga tushib qolgan bir kitobni Muhammad Payg‘ambar (s.a.v.)ga olib kelib, o‘qib berdilar. Muhammad Payg‘ambar (s.a.v.) uni eshitib qattiq g‘azablandilar va dedilar: “Ey Ibn Xattob, shu kitobni o‘qib hayron bo‘lyaptilarmi? Allohga qasamki, men sizga undan go‘zalrog‘ini keltirdim. Sizlar ahli kitoblardan hech narsa so‘ramanglar, ular sizga rost xabarni bersalar sizlar uni yolg‘onga chiqarib qo‘yishlaringiz, agar yolg‘on xabarni bersalar rost deb tasdiqlab qo‘yishlaringiz mumkin. Jonim qo‘lida bo‘lgan zotga qasamki, agar Muso(a.s) tirik bo‘lganda edi, menga ergashishdan boshqa yo‘l topa olmas edi”. Jobir ibn Abdullohning mazkur hadislar avvalgi ikki hadisga mu‘oriz kelmaydi. Chunki, ahli kitoblardan Qur‘on tafsirida foydalanishdan man etuvchi ushbu hadis islomning ilk davrlarida aytilgan edi, unda islom ahkomlari ham qaror topmagan edi. Bu haqida Hofiz ibn Hajar “Al-Fath” nomli kitobida shunday yozadi: “Jobirning hadisidagi nahiy(man etishlik) islomiy ahkomlar va diniy qoidalar qaror topmasidan oldin fitnaning oldini olish uchun qilingan edi. Fitna zamoni o‘tgandan keyin esa ahli kitoblardan eshitilgan xabarlarga ham e‘tibor kuchli bo‘lgani uchun izn berildi”. Lekin, tobeinlar davriga kelib, Qur‘on oyatlari va islomga aloqador boshqa narsalar bilan kelajak to‘g‘risida bashorat berila boshlandi. Qur‘on oyatlarini kohinlarga xos tarzda sharhlay boshladilar va g‘ayb ilmlari ham shu tarzda sharhlana boshlandi (*Obidov R, 2003:90*).

TAHLIL

Musulmon olimlari tomonidan isroiliyot rivoyatlariga turlicha munosabat bildirganlar. Muhammad Husayn Zahabiy “Isroiliyot fiy at- tafsir val hadis” asarida isroiliyot rivoyatlari to‘g‘risida 2 xil qarash borligi haqida aytib o‘tgan bo‘lib, tafsir va hadislariga ularni sharxlash vositasi sifatida yahudiy, xristian yoki boshqa manbalardan qabul qilingan

rivoyatlar hisoblansa, ikkinchi tomondan esa, islomga qarshi insonlar tomonidan, hadis yoki Qur‘on oyatlarini o‘zgartirishga harakat qilgan holda kiritilgan rivoyatlar ekanligi haqida ma‘lumot bergan. Bunga misol sifatida, Muhammad payg‘ambar (s.a.v.)ni Zaynab bintu Jaxsh bilan nikohi hisoblanadi. Zaynab bintu Jaxsh payg‘ambar Muhammad (s.a.v.)dan oldin asrab olgan o‘g‘li Zayd Ibn Horisaning nikohida bo‘lgan. Ammo ularning nikohi bekor qilingandan so‘ng Zaynab bintu Jaxsh Muhammad payg‘ambar (s.a.v.)ga nikohlangan. Bunday nikoh ya‘ni asrab olingan farzandning sobiq rafiqasini nikohiga olishlik banu isroil qavmida ruxsat etilmagan edi (*Qastaloniy, 2000:22*). Shuningdek, Husayn Zahabiy tafsirlarda isroiliyot rivoyatlaridan foydalangan roviylar agar sanadini keltirib o‘tmagan bo‘lsa yoki sahifligi shubhali bo‘lgan rivoyatlardan foydalanilgan bo‘lsa uni ishonchsizligi haqida aytib o‘tgan. Musulmon olimlaridan Ibn Taymiyyaning fikriga ko‘ra, isroiliyotlar agar islom diniga mos bo‘lgan, ya‘ni inkor etilmagan xabarlarni qabul qilish kerak, rad etilganlaridan foydalanmaslik va to‘g‘riligi va yolg‘onligi haqida fikr bildirilmagan xabarlarni to‘la inkor etmaslik kerak degan fikrlarni bildirgan. Ibn Haldun esa isroiliyot qissalaridan foydalanish kerakligini ammo, qissalarning ba‘zilari ishonchli va ishonchsizligini hisobga olish kerak deb hisoblagan. Indoneziyalik tafsirshunos olimlardan Hamka nomi bilan tanilgan Abdul Malik Karim Amirulloh o‘z tafsirida ham isroiliyot rivoyatlardan foydalangan bo‘lib, uning fikriga ko‘ra, agar isroiliyotlar aqidaga zarar yetkazmasa, Qur‘on qissalarini sharhlashda foydalanish mumkin degan fikrni bildirgan (*Muhammad ibn Idris, 1995:397*).

XULOSA

Ko‘plab olimlar tomonidan tafsirlarga isroiliyotlarning kiritilishi salbiy qabul qilingan bo‘lsa-da, ammo isroiliyot rivoyatlari tafsirga oid asarlarning ko‘p qismida uchragan. Isroiliyotlardan foydalanishda olimlar ikki guruhga bo‘lingan bo‘lib, birinchi guruh umuman ulardan foydalanmaslik va isroiliyot roviylari hisoblangan Ka‘b al-axbor, Vahb ibn Munabbih va boshqalar orqali yetib kelgan sahih xabarlarni ham rad etsalar, ikkinchi guruh esa, isroiliyotlardan tarixiy voqealrni kengroq yoritib berish hamda ulardan ruxsat etilgan miqdorida foydalanish tarafdorlari hisoblanadi.

Isroiliyot roviylaridan hisoblangan Abdulloh ibn Salom jannat bashorati berilgan sahobaning o‘ninchisi hisoblangan va islomni qabul qilishidan oldin yahudiy olimlaridan biri bo‘lib, keyinchalik, Qur‘on va Tavrotni o‘rgangan olimlardan biri bo‘lgan. Ka‘bul Axbor esa Tavrot va Qur‘on ilmlarini jamlaganligi uchun uni Ka‘bul xibr va Ka‘bul Axbor, deb nom berilgandi. Shu

sababli bir qancha olimlar ular tomonidan yetib kelgan xabarlardan foydalanganlar.

Isroiliyot rivoyatlari, garchi ko'plab bahslarga olib keluvchi mavzulardan biri bo'lishiga qaramasdan, islom dini manbalarini sharhlashda asrlar davomida olimlar tomonidan foydalanib kelingan. Buning asosiy sabablaridan biri esa, garchi keyinchalik o'zgartirib yuborilganligiga qaramasdan Tavrot, Zabur, Injil kabi muqaddas kitoblar ilohiy vahiy orqali tushirilganligi sababli, yahudiylilik, xristianlik va islom dinlaridagi qissa va rivoyatlarning ayrimlarida o'xshashliklar mavjuddir.

ADABIYOTLAR

1. Araz, Ö. F. Yahudilikte Tefsir geleneği: midraşik literatürün tarihsel gelişimi. İstanbul: İz Yayıncılık Limited, 2019. -321 s.
2. Calder, N. Tafsir from Ṭabari to Ibn Kathir: Problems in the description of a genre, illustrated with reference to the story of Abraham. -London: Routledge, 2005. -144 p.
3. Dehlaviy. al-favzul kabir fiy usulit-Tafsir. Qohira: "Dorul-maorif", 1950. -400 s.
4. Demir, Ş. Mitoloji Kur'an kıssaları ve tarihi gerçeklik. -Ankara: Beyan yayınları, 2003. -177 s.
5. Goldenberg, R. The Origins of Judaism: From Canaan to the Rise of Islam. -Cambridge: Cambridge University Press, 2007. -312 p.
6. Haysam Muhammad. Qisas al-Qur'an. Princeton University Press, 1970. -382 p.
7. Husain, Khalaf Muhammad. (1964). Al-Yahudiyyah bain Al-Masihiyah va Al-Islam, Mesiral-Muassasah Al-Ammah.
8. Ibn Jawzi. Kitab al-qussas. -Beirut: Dar al-Machreq, 1986. -200 p.
9. Ibn Hajar Asqaloni. Fath al-Boriy. -Riyoz: Dor ut-tayba, 2005. 8-jild.
10. Karaalp, Cahit. (2020). İsrâiliyyât'in tefsire girişi. İslam Düşüncesi Araştırmaları. Vol. 2019: Iss. 3, Article 3.
11. Bible, K. J. King James Bible. 1996: Vol. 19
12. Mainiyo, A. S., & Shuni, M. D. (2016). The position of isra'iliyyat in the islamic tradition: the emerging trends. Galaxy international interdisciplinary research journal ISSN: 2347-6915. Vol. 4 Iss.10, Article 10.
13. Muhammad Fu'ad Abdul Baqi. Al-Mu'jam Al-Mufahras li Al Faz al-Qur'an Al-Karim. -Cairo: Dar al-Kutub al-Misriyah Press, 1987. -250 s.
14. Muḥammad Abu Shahbah. Al-Isroiliyyat va al-Mawjudat Fi Kutub al-Tafsir. -Cairo: Maktabah al-Sunnah. 1988. -300 s.
15. Mas'udiy. Muruj al-zahab wa ma'adin al-javhar. -Beirut (Lebanon): Lebanese University Publication, 1966. Vol.1
16. Muhammed Izzet Derveze (1990). Havle al-israiliyyat fi kutubi at-tefsir. Mecelletu al-vayi al-Islami. Vol.19. -S. 41-42.
17. Muhammad Husayn Zahabi. Al-Isroiliyot fit-tafsir val hadis. -Qohira: Dorul-maorif, 1990. -500 s.

18. Muḥammad ibn Idris al-Shafi. Al-Risalah. -Beirut: Dar al-Kutub al-Ilmiyyah, 1995. -400 s.
19. M. Lütfi Sebbag (1999). Tefsir Ussulu Araştırmaları. Anadolu Yayınları. İzmir
20. Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti tomonidan O'zbekiston bibliya jamiyati tomonidan tayyorlangan. -Toshkent: Muqaddas kitobni tarjima qilish instituti, 2020. -2364 b.
21. Netton, Ian Richard. "Al-Qazwini" Encyclopedia of Islamic Civilization and Religion, Oxford: Routledge, 2013. -686 p.
22. Nuryansah, M. (2017, November). Israiliat Contribution In Contemporary Exegesis:(The Effort To Establish Israiliat Which Is Silenced "Mauquf" As A Source Of An Interpretation). In International Conference on Qur'an and Hadith Studies (ICQHS 2017) (pp. 38-42). Atlantis Press.
23. Na'na'ah, R. "al-Isrâ'iliyyat wa Athâruhâ fi Kutub al-Tafsîr". Cairo: Dar al-Qalam wa al-Dhiya. 1970. -247 p.
24. Qastaloni. "Sahih al-manquvl fiy hadiysil mavzu", Qohira: Dorul-maorif, 2000. 2 j.
25. R.Obidov. Qur'on va tafsir ilmlari // Darslik. -Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2003. -179 b.
26. Razali, W. M. F. A. W., & Abd Rahman, M. R. Muslim heritage in religionswissenschaft: a preliminary study on the purposiveness & the non-purposiveness of muslim scholarship. Nordic Journal of Comparative Religion: Vol. 2014. Article 44.
27. Tottoli, R. «İslâmî Literatürde İsrâiliyyât Teriminin Kökeni ve Kullanımı», Marife Dini Araştırmalar Dergisi, c. 10, sayı. 2, ss. 201-215, Eyl. 2010, doi:10.5281/zenodo.3344180
28. Tottoli, R. Biblical prophets in the Qur'an and Muslim literature. -London: Routledge Press, 2002. -213 p.
29. Tottoli, R. Origin, and Use of the Term Isrâ'iliyyât in Muslim Literature. -Arabica, T. 46, Fasc. 2, 1999. -P. 193-210.
30. Zakariya Qawiniy. The woders of creation. Iroq: Wasit. 1863. -500 s. <https://hdl.loc.gov/loc.wdl/wdl.8962>
31. Васильев А. История религий Востока. -М.:, 1997. -166 с.

REFERENCES

1. Araz, Ö. F. Yahudilikte Tefsir geleneği: midraşik literatürün tarihsel gelişimi. -İstanbul: İz Yayıncılık Limited, 2019. -321 s.
2. Calder, N. Tafsir from Ṭabari to Ibn Kathir: Problems in the description of a genre, illustrated with reference to the story of Abraham. -London: Routledge, 2005. -144 p.
3. Dehlaviy. al-favzul kabir fiy usulit-Tafsir. Cairo: "Dorul-maorif", 1950. 400 s.
4. Demir, Ş. Mitoloji Kur'an kıssaları ve tarihi gerçeklik. Ankara: Beyan yayınları, 2003. -177 s.
5. Goldenberg, R. The Origins of Judaism: From Canaan to the Rise of Islam. -Cambridge: Cambridge University Press, 2007. -312 p.

6. Haysam Muhammad. Qisas al-Qur'an Princeton University Press, 1970. -382 p.
7. Husain, Khalaf Muhammad. (1964). Al-Yahudiyah bain Al-Masihiyah va Al-Islam, Mesiral-Muassasah Al-Ammah.
8. Ibn Jawzi. Kitab al-qussas. -Beirut: Dar al-Machreq, 1986. -200 p.
9. Ibn Hajar Asqaloniy. Fath al-Boriy. -Riyoz: Dor ut-tayba, 2005. 8-jild.
10. Karaalp, Cahit. (2020). İsrâiliyyât'in tefsire girişi. İslam Düşüncesi Araştırmaları. Vol. 2019: Iss. 3, Article 3.
11. Bible, K. J. King James Bible. 1996: Vol. 19
12. Mainiyo, A. S., & Shuni, M. D. (2016). The position of isra'iliyyat in the islamic tradition: the emerging trends. Galaxy international interdisciplinary research journal ISSN: 2347-6915. Vol. 4 Iss.10, Article 10.
13. Muhammad Fu'ad Abdul Baqi. Al-Mu'jam Al-Mufahras li Al Faz al-Qur'an Al-Karim. -Cairo: Dar al-Kutub al-Misriyah Press, 1987. -250 s.
14. Muḥammad Abu Shahbah. Al-Isroiliyyat va al-Mawjudat Fi Kutub al-Tafsir. -Cairo: Maktabah al-Sunnah. 1988. -300 s.
15. Mas'udiy. Muruj al-zahab wa ma'adin al-javhar. -Beirut (Lebanon): Lebanese University Publication. 1966. Vol.1
16. Muhammed Izzet Derveze (1990), Havle al-israiliyyat fi kutubi at-tefsir. Mecelletu al-vayi al-Islami. Vol.19. -S. 41-42.
17. Muhammad Husayn Zahabiy. Al-Isroiliyot fit-tafsir val hadis. -Cairo: Dorul-maorif, 1990. -500 s.
18. Muḥammad ibn Idris al-Shafi. "Al-Risalah. -Beirut: Dar al-Kutub al-Ilmiyyah. 1995. -400 s.
19. M. Lutfi Sebbağ (1999). Tefsir Usulu Araştırmaları. Anadolu Yayinlari. Izmir
20. Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti tomonidan O'zbekiston bibliya jamiyati tomonidan tayyorlangan. Toshkent: Muqaddas kitobni tarjima qilish instituti, 2020, - 2364 b.
21. Netton, Ian Richard. "Al-Qazwini" Encyclopedia of Islamic Civilization and Religion. -Oxford: Routledge, 2013. -686 p.
22. Nuryansah, M. (2017, November). Israiliat Contribution In Contemporary Exegesis:(The Effort To Establish Israiliat Which Is Silenced "Mauquf" As A Source Of An Interpretation). In International Conference on Qur'an and Hadith Studies (ICQHS 2017) (pp. 38-42). Atlantis Press.
23. Na'na'ah, R. al-Isrâ'iliyyat wa Athâruhâ fi Kutub al-Tafsîr. -Cairo: Dar al-Qalam wa al-Dhiya, 1970. -247 p.
24. Qastaloniy. Sahih al-manquvl fiy hadiysil mavzu. -Qohira: Dorul-maorif, 2000. 2 j.
25. R.Obidov. Qur'on va tafsir ilmlari // Darslik. Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2003. -179 b.
26. Razali, W. M. F. A. W., & Abd Rahman, M. R. Muslim heritage in religionswissenschaft: a preliminary study on the purposiveness & the non-purposiveness of muslim scholarship. Nordic Journal of Comparative Religion: Vol.2014. Article 44.
27. Tottoli, R. İslamî Literatürde İsrâiliyyât Teriminin Kökeni ve Kullanımı. Marife Dini Araştırmalar Dergisi, c. 10, sayı. 2, ss. 201-215, Eyl. 2010, doi:10.5281/zenodo.3344180
28. Tottoli, R. Biblical prophets in the Qur'an and Muslim literature London: Routledge Press, 2002. 213 p.
29. Tottoli, R. Origin, and Use of the Term Isrâ'iliyyât in Muslim Literature. Arabica, T. 46, Fasc. 2, 1999, pp 193-210.
30. Zakariya Qazwiniy. "The worders of creation". Iroq: Wasit. 1863. 500 s. <https://hdl.loc.gov/loc.wdl/wdl.8962>
31. Vasilyev A. Istoriya religiy Vostoka. -M.:, 1997. -166 s.